

## BEPUSHTLIK VA EKO

**Obidova Lobar Rayimovna**

*G'ijduvon tibbiyot kolleji*

*Akusherlik va ginekologiya fani o'qituvchisi*

**Annotasiya:** *bepushtlik va eko (bepushtlikni davolash) haqida ma'lumotlar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *bepushtlik, eko, IKSI, TESE.*

Bepushtlik bo'yicha izlanishlar va yangi davollash usullari bilan shifokorlar Gippokrat davridan beri shug'ullanib kelishgan. Ammo 1978-yildagina ijobiy natija olingan.

Farzand ko'rish istagida bo'lgan lekin homiladorlikdan saqlovchi vositalarsiz jinsiy aloqa qilganiga qaramay farzand ko'ra olmagan juftliklarning ko'pi "Men bepushtmanmi?" deb o'ylaydi. Ayolning yoshi 35 dan kichik bo'lsa 1 yil 35 dan katta bo'lsa 6 oy homiladorlikdan saqlovchi vositalarsiz jinsiy aloqa qilgan taqdirda ham homilador bo'lmasa bu ayolga (bepushtlik) tashxisini qo'yish mumkin. Farzand ko'rish niyatida bo'lganlar uchun qilingan barcha harakatlar zoe ketgan taqdirda bepushtlikni davolash uchun vaqt o'tkazmasdan mutaxassisga murojaat qilish darkor.

Homiladorlikni rejalashtirilgan juftlikning bajarishi kerak bo'lgan ishlar ro'yxatida birinchi navbatda ayol va erkakning jismoniy sog'lomligini birgalikda ko'rib chiqilishi turadi. Reproaktiv salomatlikka ta'sir ko'rsatuvchi faktorlarni tushunish nihoyatda muhim o'rin tutadi. O'rganish va tushunib yetish orqali ham tabiiy yo'llar bilan hamda yordamchi yo'llar bilan homilador bo'lish ehtimoli ortadi.

Bepushtlik sabablarining 45% erkaklardan, 45% esa ayollardan kelib chiqadi. Qolgan 10% esa tushuntirib bo'lmaydigan bepushtlikdir.

Erkak bepushtligining bir necha xil sabablari mavjud. Genetik (irsiy) muammolar, tug'ilganligida yuz bergan anomaliyalar, gormonal sabablar, kimyoviy faktorlar, yallig'lanishga bog'liq kasalliklar, azoospermiya, varikosele va jarrohlik operatsiyalari bepushtlikning asosiy sabablari hisoblanadi.

Ayol bepushtligining sabablariga esa umumiy chegaralarda: ovulyatsiya buzilishi, polikistik tuxumdon sindromi, naychalarning bloklanishi yoki zararlangan bo'lishi, endometrioz, yosh kattaligi, bachadon bo'yniga doir muammolar va vaginismus kasalligini ko'rsatish mumkin.

Ayol kishiga bog'liq bepushtlik ko'pinchi hayz holatidagi qon kelishi buzilishi bilan namoyon bo'ladi. Agar ikki hayz muddati orasidagi vaqt 21 kundan oz yoki 35 kundan ko'p bo'lsa ovulyatsiya buzilishi haqida gapirish mumkin bo'ladi va bu holat bepushtlikka olib kelishi mumkin.

Erkak bepushtligi esa hech qanday belgilarsiz bo'lishi mumkin. Siydik chiqarilayotgan paytda achishish yoki suyuqlik oqib qolishi birlamchi tashxis sifatida ko'rilishi mumkin. Lekin aniq tashxis uchun spermogramma (urug' tahlili) amalga oshirish kerak. Ikki kundan

yetti kungacha jinsiy aloqadan parhez qilib undan so'ng amalga oshirilgan spermogramma natijasida sperma miqdori, harakatliligi va morfologiyasi haqida ma'lumot olish mumkin. Test natijasiga ko'ra bemorga kerakli muolaja programmasini boshlash mumkin bo'ladi.

Hozirgi kunda texnologiyalari davrida bepushlikni olish bo'yicha malakali mutaxassislar, davolanish maskanlari juda ko'pdir. Birgina misol: Turkiyada, 1989 yildan buyon bepushtlikdan aziyat chekayotgan bemorlarga EKO davolash usuli taklif etilib kelinadi, buning natijasida minglab turmush qurgan juftliklar farzand ko'rish bahtiga sazovor bo'ldilar. Ushbu usul bilan davolanishni rejalashtirayotgan bo'lsangiz, Turkiyadagi turli klinikalarda sizga yuqori sifatli turli EKO usullari taklif etiladi.

Bepushtlikni davolash muolajalari tibbiy muammosi bo'lgan oilalarda erkaklarga (misol uchun, spermaning sifatsizligi, sperma miqdori kamligi va hokazo) va / yoki ayolda (endometrioz, tuxumdonning zaxirasi kamligi, bachadon naychalari patologiyasi va boshqalar) bo'lgan juftliklar uchun ko'rsatma bo'lib hisoblanadi. Shuningdek bepushtligining sababi aniqlanmagan juftliklar uchun ham ko'rsatiladi.

Davolash usuli bemorning klinik holati va muammosiga ko'ra belgilanadi. Eng yaxshi va eng muqobil davolash usuli kasallik tarixi, analizlar natijalari, ijtimoiy va klinik mezonlar va davolovchi shifokor suhbatida asosida, hammasi o'rganib chiqilib tanlanadi.

Farzand ko'rish istagida bo'lgan juftliklarda homiladorlik kechishiga va umuman onaning hayotiga taxdid soladigan sog'liq muammolari bo'lmasligi kerak. Ushbu faktlardan tashqari, EKO boshqa qarshi ko'rsatmalarga ega emas.

Kerakli bo'lgan tekshiruvlar ro'yxati:

- Ayolning hayz ko'rishning ikkinchi kunida quyidagi analizlar topshiriladi: FSG, LG, prolaktin, TTG va estradiol.

- Bachadonning ichki qatlami holatini baholash uchun har bir ko'rik paytida ultratovush tekshiruvi.

Agar o'z vataningizda bu tekshiruvlarni o'tishlari uchun imkoniyatingiz bolmasa, Remed kompaniyasi sizni qo'llab-quvvatlash bilan birga sizning davolanish rejangizni o'z zimmasiga olishdan hursand bo'ladi.

Davolash bosqichi:

1 bosqich:Ovulyatsiya va follikullarning holatini kuzatish (bu bosqich hayz siklining ikkinchi kunida boshlanadi va zaruriy testlarni, preparatni qo'llashni o'z ichiga oladi, uning davomiyligi 12-13 kun).

2 bosqich:Follikulalar punksiyasi + IKS (oxirida kuzatish)

3 bosqich:Blastosist bosqichida embrionlarni ekish (tuxum hujayrasi olinganidan keyin 3-5 kun).

Davolanish barcha bosqichlarining taxminiy muddati 21 kun.

IKS operatsiyalar muntazam ravishda amalga oshiriladi. EKOni IKSIdan farqi unda spermatozoid va tuxum xujayra Petri idishiga joylashtiriladi va mustaqil urug'lanish sodir bo'ladi, IKS usuli mikroinyeksiya usuli deb ham tanilgan, bu holatda mustaqil urug'lanish sodir bo'lmaydi, aksincha urug' xujayrasi tuxum xujayrasiga maxsus mikroignalar

yordamida kiritiladi. Bir qator erkaklar bepustligi holatida masalan azospermiyada yoki vazoektomiya o'tkazilganda spermatozoidlarning testikulyar ekstraksiyasi (TESE) zarur. Ayollarning ovulyasiyasi muammolarining hamma xolatlarida, masalan endometrioz, tuxumdonlar polikistozi sindromi, bachadon naychali tutilishi va boshqa o'ziga hos ayollar salomatligi muammolari to'g'ridan to'g'ri EKO yoki IKSI ga ko'rsatma bo'lib hisoblanadi. Ayollardagi ovulyatsiya bilan bog'liq barcha holatlar masalan endometrioz, tuxumdonlar polikistozi sindromi, bachadon naychalari tutilishini va boshqa o'ziga xos kasalliklar EKO yoki IKSI uchun ko'rsatma bo'lib hisoblanadi.

Preimplantasyon genetik tashxis (embrion biopsiyasi) ilgari EKO amaliyoti muvaffaqiyatsiz bo'lgan bo'lsa, va/yoki oilada irsiy kasalliklar bor bo'lgan juftliklar uchun ko'rsatma bo'lishi mumkin. Bu holda alohida bir xujayra ajratib olinib genetik laboratoriyaga xromosom tahlil qilish uchun yuboriladi. Agar kerak bo'lsa, lazer-rag'batlantiruvchi xetching va blastosyst embriotransfer qo'llaniladi (homila rivojlanishining 5-kuni) Bu keltirilib o'tilgan EKO texnologiyalari yaxshiroq natijalarga erishish va embrion implantatsiyasini takomillashtirilgan usullari orqali homiladorlik ehtimolini oshirish uchun hissa qo'shadi.

Farzand ko'rish uchun muolaja boshlamoqchi bo'lgan juftlik sun'iy urug'lantirish markaziga murojaat qilishi kerak. Sun'iy urug'lantirish markazini tanlashda shifokorlarning tajribasi va markazning muvaffaqiyat ko'rsatkichlariga e'tiborni qaratish nihoyat darajada muhimdir. Agar muolaja uchun Bahcheji Sun'iy Urug'lantirish Markazini tanlasangiz shifokorimiz siz bilan oldin suhbatladi va undan so'ng kerakli tekshiruvlar boshlanadi. Amalga oshiriladigan bir necha testlar natijasi tekshiriladi. Markazimizda har bir juftlikning muammolari har xil nuqtai nazardan kelib chiqqan holatda ko'rib chiqiladi va bunga ko'ra "individual" muolaja programmalari qo'llaniladi.

Psixologiya nuqtai nazaridan psixologik bepustlik potentsial onaning yoki potentsial otaning jismoniy holati bilan bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra bolaning kontseptsiyasiga xalaqit beradigan omil hisoblanadi, shuning uchun tibbiy muhitda "bepustlikning psixologik sabablari" yoki "bepustlikning psixologik omili" atamasi tez-tez uchraydi.

Psixologik bepustlikni batafsil tushunish uchun uning sabablarini aniqlash kerak. Keling, buni batafsilroq bilib olaylik.

Psixologik bepustlikning sabablari:

Surunkali stress yoki juda kuchli farzand ko'rish istagi, onalik orzusiga berilib ketish homilador bo'lish qo'rquvi emas, aksincha, homilador bo'lmaslik qo'rquvi.

Evolutsion tarzda shunday tartibga solinganki, odam "to'xtatib qo'yilgan" yoki xavfli holatda bo'lganida (ya'ni, bu stress bilan ishora qiladi), tana ko'payish imkoniyatini to'sib qo'ydi, aks holda inson ham, avlod ham o'lishi mumkin edi. Vaqt o'zgaradi, ammo hukmron reaksiyalar bizda qoladi. Shuning uchun, bepustlik holatida psixolog birinchi navbatda er-xotinning stress darajasi bilan ishlaydi. Aynan shu sababli, ko'p oilalar sinashga katta e'tibor berishni to'xtatishi bilanoq "homilador bo'lishadi". Muammoni boshdan kechirish bir xil surunkali stress bo'lib, u yo'qolganda bepustlik sababi yo'qoladi.

Ularning barchasi surunkali stress printsipli asosida ishlaydi, bu esa adrenalin va boshqa kimyoviy moddalarni chiqarishga olib keladi, bu esa homilador bo'lishni imkonsiz qiladi. Qo'rquvni anglash va qabul qilish kerak, chunki u doimo ijobiy narsa beradi, sizni bir narsadan xalos qiladi.

Bu psixologik bepushtlikdan qanday qutulish haqida bir nechta maslahatlar. Darhaqiqat, ularning soni yana ko'p va faqat ayolning yuragi aynan u uchun onalik eshigini ochadigan kalitni topadi. Asosiysi, o'zingizga va omadingizga ishonish. Inson shu vaziyatlarda albatta malakali shifokorlarga uchrash, to'g'ri muolaja olish, tartib qoidlariga rioya qilish siz kutgan natijalarga olib keladi degan umiddamiz.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Erkaklarda bepushtlik sabablari va davolash usullari - Andrologiya (avitsenna.uz)
2. Ayollar bepushtligi - sabablari, alomatlari, bepushtlikning omillari, tashxislash (mymedic.uz)
3. Bepushtlik - Vikipediya (wikipedia.org)
4. EKO - Bepushtlikni Davolash (IKSI) - Bepushtlik.uz
5. Zokirov, S. I., Sobirov, M. N., Tursunov, H. K., & Sobirov, M. M. (2019). Development of a hybrid model of a thermophotogenerator and an empirical analysis of the dependence of the efficiency of a photocell on temperature. Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers, 15(3), 49-57.
6. Горовик, А. А., & Турсунов, Х. Х. У. (2020). Применение средств визуальной разработки программ для обучения детей программированию на примере Scratch. Universum: технические науки, (8-1 (77)), 27-29.
7. Tursunov, H. H., & Hoshimov, U. S. (2022). TA'LIM TIZIMIDA KO'ZI OJIZ O'QUVCHILARNI INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANIDA O'QITISH TEXNOLOGIYALAR. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(5), 990-993.
8. Hamidullo o'g'li, T. H. (2022). HOZIRGI KUNNING DOLZARB IMKONIYATLARI. JAWS VA NVDA DASTURLARI. Scientific Impulse, 1(2), 535-537.
8. Hamidullo o'g'li, T. H. (2022). NEYRON TARMOQLARNING TASNIFI. Scientific Impulse, 1(3), 757-763.
9. Hamidullo o'g'li, Tursunov Hojiakbar, and Boymuratov Erkin Kamolovich. "IMKONIYATI CHEKLANGAN O 'QUVCHILAR BILAN ISHLASH TAJRIBASI." Scientific Impulse 1.7 (2023): 648-653.
10. Mamanovich, R. K. (2021). Components of political culture in political processes. Academics: an international multidisciplinary research journal, 11(2), 953-959.
11. Ramazanovich, M. N., & Kabilovich, B. O. (2021). Constitutional and Legal Framework for Providing International Peace. Middle European Scientific Bulletin, 18, 218-220.

12. Расулов, Х. (2021). Ҳуқуқий маданият: муаммонинг ижтимоий-сиёсий омиллари. Общество и инновации, 2(10/S), 335-342.
13. Ramazanovich, M. N., & Abdunazarovich, P. B. (2021). Protection of Family and Youth in the Constitution of the Republic of Uzbekistan. Middle European Scientific Bulletin, 18, 221-223.
14. Расулов, Х. М. (2021). ВЫБОРНЫЙ ЯВЛЕНИЕ И ПРОБЛЕМА СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ЭЛЕКТРОКУЛЬТУРЫ НАСЕЛЕНИЯ. Восточно-европейский научный журнал, (11-6 (75)), 28-32.
15. Rasulov, H. M. (2021). ELECTION PHENOMENON I THE PROBLEM OF IMPROVING THE ELECTRIC CULTURE OF THE POPULATION. ВОСТОЧНО ЕВРОПЕЙСКИЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ, 75(part 6), 28.
16. Ramazanovich, M. N., & Kabilovich, B. O. (2021). Constitutional and Legal Framework for Providing International Peace. Middle European Scientific Bulletin, 18, 218-220.
17. Хакимова, М. (2021). Ўзбекистонда миллатлараро тотувликни таъминлаш соҳасидаги устувор йўналишлар. Общество и инновации, 2(10/S), 261-267.
18. Ramazanovich, N. M., & Abdurasulovich, E. B. (2022). CONSTITUTIONAL STATUS OF POLITICAL PARTIES. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 3(11), 79-88.
19. Ramazanovich, N. M., & Abdurasulovich, E. B. (2022). PROCEDURE FOR REGISTRATION OF PUBLIC ASSOCIATIONS. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(11), 740-746.
20. Ramazanovich, N. M., & Mamanorov, K. (2022). PECULIARITIES OF CONSTITUTIONAL-LEGAL RELATIONS. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 3(11), 89-94.
21. Ramazanovich, N. M., & Alisherovich, A. A. (2022). CONSTITUTIONAL STATUS OF THE FAMILY IN UZBEKISTAN. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(11), 732-739.
22. Ramazanovich, N. M., & Mamanorov, K. (2022). CONSTITUTIONAL-LEGAL RELATIONS, THEIR SUBJECTS, OBJECTS AND TYPES. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(11), 747-756.
23. Normamat Mallaev Ramazanovich. (2022). CONSTITUTIONAL-LEGAL STATUS OF MASS MEDIA. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 3(11), 70–78.
24. Normamat Mallaev Ramazanovich, & Khaitmurod Mamanorov. (2022). PECULIARITIES OF CONSTITUTIONAL-LEGAL RELATIONS. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 3(11), 89–94.
25. Ramazanovich, Mallayev N. "Comparative Analysis of National and Foreign Experiences on the Example of the Constitutional and Legal Basis of Ecological."

International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology, no. 2, 2020, pp. 1-5.

26. Normamat Mallaev Ramazanovich, IMPORTANCE AND ANALYSIS OF THE CONCEPT OF CIVIL RIGHTS , Web of Scientist: International Scientific Research Journal: Vol. 3 No. 10 (2022): wos

27. Кушоков, С. (2021). Сополли ва Жарқўтон маданиятида дафн маросимлари. Общество и инновации, 2(11/S), 150-154.

28. Kushokov, S. Y. (2021). The Role of Zoroastrianism in the Ancient State of Bactria. World Bulletin of Social Sciences, 4(11), 69-72.

29. Yusupovich, K. S. (2020). The Emergence Of Religious Views Is Exemplified By The Southern Regions. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2(10), 143-145.

30. Yusupovich, K. S. (2021). Қадимий Дафн Маросимларидаги Анъана Жараёнлари Ўзбекистон Жануби Мисолида. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 1(6), 72-77.

31. Сафарали, К. Ю. (2020). Чорвадор Қабилалар Дафн Маросимлари Ва Уларнинг Хусусиятлари. Взгляд В Прошлом, 3(4).

32. Сафарали, К. Ю., & Хуррамов, М. (2022). ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНИНГ МАЛАЙЗИЯ ҲАМДА ИНДОНЕЗИЯ ДАВЛАТЛАРИ БИЛАН ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ ВА МАДАНИЙ СОҲАЛАРДАГИ ҲАМКОРЛИГИ. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 176-186.

33. Kushokov, S. Y., & Ahmedov, S. (2021). THE STRUCTURE OF TURKISH TRIBES IN CENTRAL ASIA AND ITS HISTORICAL IMPORTANCE. European Scholar Journal, 2 (10), 25-27. Of Two Languages, Settlement And Livestock Tribes. The American Journal of Interdisciplinary.

34. Kushokov, S. Y., & Ahmedov, S. (2021). THE STRUCTURE OF TURKISH TRIBES IN CENTRAL ASIA AND ITS HISTORICAL IMPORTANCE. European Scholar Journal, 2 (10), 25-27. Of Two Languages, Settlement And Livestock Tribes. The American Journal of Interdisciplinary